

## ARAB TILI VA O'ZBEK TILIDAGI KO'PLIK QO'SHIMCHALARI: GRAMMATIK VA SEMANTIK TAHLIL.

**Nuriddinova Chexroza Shuxrat qizi,**

Alfraganus universiteti, filologiya fakulteti 1-kurs talabasi,

Ilmiy rahbar: **Baxtiyarova Fotimaxon Sodiqovna,**

Alfraganus universiteti, f.f.n.(PhD).

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab va o'zbek tillaridagi ko'plik tushunchasi grammatik va semantik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Arab tilidagi jam' salim (to'g'ri ko'plik) va jam' taksir (siniq ko'plik) shakllari, ularning jinsga bo'linishi, shuningdek o'zbek tilidagi -lar/-lar grammatik qo'shimchasi va leksik-semantik takrorlash usullari solishtirma yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Til o'rganuvchilar uchun bu maqola ikki til tizimi orasidagi farqlarni anglash va taqqoslashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** arab, o'zbek, grammatik, semantik, leksik, to'g'ri ko'plik, siniq ko'plik, leksik-semantik, usullari, yondashuv, ikki til tizimi.

**Аннотация:** В данной статье понятие множественного числа в арабском и узбекском языках анализируется с грамматической и семантической точек зрения. На основе сопоставительного подхода рассмотрены формы джам салим (правильное множественное число) и джам таксир (ломаное множественное число) в арабском языке, их родовое деление, а также грамматический суффикс -лар/с в узбекском языке и лексико-семантические методы повторения. Для изучающих язык эта статья служит важной теоретической основой для понимания и сравнения различий между двумя языковыми системами.

**Ключевые слова:** арабский, узбекский, грамматический, семантический, лексический, правильное множественное число, ломаное множественное число, лексико-семантический, методы, подход, две языковые системы.

**Annotation:** In this article, the concept of plural in Arabic and Uzbek languages is analyzed from a grammatical and semantic point of view. The forms jam' salim (correct plural) and jam' taksir (broken plural) in Arabic, their gender division, as well as the grammatical suffix -lar/s in Uzbek and lexical-semantic repetition methods are considered on the basis of a comparative approach. For language learners, this article serves as an important theoretical framework for understanding and comparing the differences between the two language systems.

**Keywords:** Arabic, Uzbek, grammatical, semantic, lexical, correct plural, broken plural, lexical-semantic, methods, approach, two language systems.

**KIRISH.** Ko'plik tushunchasi deyarli har bir tilda mavjud bo'lib, u grammatik birlik sifatida til strukturasi va ma'no tizimining muhim komponentidir (1). Arab va o'zbek tillari bu masalada o'ziga xos tizimlarga ega. O'zbek tilida ko'plik -lar/-lar grammatik qo'shimchasi yordamida ifodalansa (5), arab tilida esa ko'plik ko'plab morfologik shakllar — jam' muzakkar salim, jam' muannas salim va jam' taksir orqali hosil qilinadi (2)(3).

**METODOLOGOYASI.** Ushbu maqolada leksik taqqoslash va tahliliy yondashuv asos qilib olindi. Arab va o'zbek tillarining leksik tizimi o'rtasidagi farq va o'xshashliklar solishtirma-lisoniy usul orqali o'rganildi. Shuningdek, deskriptiv (ta'riflovchi) va tarixiy-lisoniy metodlardan foydalanilib, o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan so'zlar semantik guruhlariga ajratilib tahlil qilindi. Misollar asosida konkret so'zlarning shakl, ma'no va uslubiy xususiyatlari aniqlanib, ular orqali arab tilining o'zbek leksikasiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.

### **1. O'zbek tilidagi ko'plik shakllari**

#### **Grammatik ko'plik**

O'zbek tilida ko'plik asosan **-lar/-lar** grammatik qo'shimchalari orqali hosil qilinadi (5):

- **bola** → **bolalar**
- **kitob** → **kitoblar**
- **siz** → **sizlar**

#### **Leksik-semantik ko'plik (takrorlash orqali)**

O'zbek tilida stilistik jihatdan so'zlarni takrorlash orqali ko'plik ifodalanadi (5):

- **dasta-dasta gul** – ko'plab guldastalar
- **yashik-yashik olma** – ko'p yashikdagi olmalar
- **chelak-chelak suv** – ko'p chelak suv
- **uyma-uy yurdi** – har bir uyga bordi

### **2. Arab tilidagi ko'plik shakllari**

Arab tilidagi ko'plik shakllari grammatik jihatdan uch turga bo'linadi (2)(3)(4):

#### **Jam' muzakkar salim**

- **muallim** → **muallimūn** (muallimlar)
- **muslim** → **muslimūn** (musulmonlar)

#### **Jam' muannas salim**

- **muallima** → **muallimāt** (muallimalar)
- **taliba** → **talibāt** (talabalar - ayollar)

**Jam' taksir**

- **kitāb** → **kutub** (kitoblar)
- **rajul** → **rijāl** (erkaklar)
- **qalam** → **aqlām** (ruchkalar)

**3. Arab va o'zbek tilidagi ko'plikning qiyosiy tahlili**

| <b>Mezoni</b>               | <b>O'zbek tili</b>                            | <b>Arab tili</b>                      |
|-----------------------------|-----------------------------------------------|---------------------------------------|
| Grammatik<br>qo'shimcha     | -lar/-lar (5)                                 | -ūn, -āt, taksir<br>(2)(3)(4)         |
| Stilistik ko'plik           | So'z takrorlash: uyma-<br>uy, dasta-dasta (5) | Mavjud emas (2)                       |
| Morfologik soddalik         | Juda yuqori (5)                               | Murakkab, istisnolar<br>ko'p (4)      |
| Jins ajratilishi            | Yo'q (5)                                      | Bor (muzakkar,<br>muannas) (2)(3)     |
| O'zgaruvchanlik<br>darajasi | Kam (5)                                       | Yuqori (xususan jam'<br>taksirda) (4) |

**4. Stilistik usul: O'zbek tilida takrorlash orqali ko'plik hosil qilish**

Bu usulda grammatik qo'shimcha ishlatilmaydi, biroq ko'plik ifodasi aniq seziladi (5):

- **Dasta-dasta gul** – ko'plab guldastalar
- **Yashik-yashik olma** – ko'p yashikdagi olma
- **Chelak-chelak suv** – katta miqdordagi suv
- **To'da-to'da odam** – odamlar guruhlar bilan
- **Uyma-uy yurish** – har bir uyga kirib chiqish

Yana qo'shimcha tarzda shu aytish mumkinki, leksik tizimda sinonimiya va semantik chuqurlik. Arab tilida sinonimlar soni ko'p bo'lib, bir tushuncha bir necha so'z orqali ifodalanadi:

Masalan: qalb, fu'od, sadr – barchasi “yurak/ko'ngil” ma'nolarini beradi. O'zbek tilida esa sinonimik qatorlar nisbatan kam, ammo uslubiy vositalar bilan boyitiladi: Yurak, ko'ngil, bag'ir, dil – o'zbekcha so'zlar bo'lib, uslubiy ma'nolar farqlanadi. Bu ikki til orasidagi leksik chuqurlik va tafovutlar semantik tahlil orqali ochiladi.

**XULOSA.** Maqolada arab va o'zbek tillaridagi ko'plik shakllari tahlil qilinib, ularning grammatik va stilistik xususiyatlari yoritildi. O'zbek tili soddaligi va stilistik obrazlilik bilan ajralib tursa, arab tili murakkab ko'plik tizimi va jinsga ajratilishi bilan ajralib turadi. Til o'rganuvchilar uchun bu farqlarni anglash muhim bo'lib, ularni chuqur o'rganish nazariy va amaliy tilshunoslikda muhim o'rin egallaydi. Arab va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, ularning leksik tizimi o'rtasida chuqur tarixiy, madaniy va dini asosga ega aloqalar mavjud. Arab tilidan o'zbek tiliga minglab so'zlar, ayniqsa diniy, ilmiy va ma'naviy sohalarga oid atamalar o'zlashgan. Ushbu so'zlar faqat lug'aviy boylik sifatida emas, balki o'zbek tilining ma'naviy-ma'rifiy ifoda vositalarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynagan. Shuningdek, arab tilining ildiz-vazn asosidagi so'z yasash tizimi va o'zbek tilining affiksatsiya (qo'shimchalar) asosidagi tizimi o'rtasidagi farqlar bu tillarning leksik taraqqiyot yo'llari turlicha kechganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sinonimiya va semantik chuqurlik jihatidan ham arab tili o'zbek tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Maqolada olib borilgan tahlillar arab va o'zbek tillarining leksik jihatdan o'zaro bog'liqligini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish kelajakdagi lingvistik tadqiqotlar uchun ham muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'aniyeva, S., & Mahmudov, N. (2005). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
2. Wright, W. (2001). *A Grammar of the Arabic Language*. Cambridge University Press.
3. Al-Khudari, M. (1990). *Al-Qawā'id al-'Arabiyya*. Misr: Dar al-Fikr.
4. Haywood, J. A., & Nahmad, H. M. (1962). *A New Arabic Grammar of the Written Language*. Lund Humphries.
5. Rahmatullayev, H. (2008). *O'zbek tili grammatikasi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Learn Arabic with Maha – YouTube kanali: <https://www.youtube.com/@LearnArabicwithMaha>
7. Corpus.leeds.ac.uk – Arab matnlar korpusi
8. Til.gov.uz – O'zbek tili portali
9. Google Scholar maqolalari va ilmiy manbalar